




# **OLTIN BITIKLAR GOLDEN SCRIPTS**



**2  
2019**

BOSH MUHARRIR  
EDITOR IN CHIEF  
Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI  
Nusratullo Jumaxo'ja

MAS'UL KOTIB  
Akmal Farmonov

TAHRIR HAYATI  
Abdirashidov Zaynobiddin  
Abdulla A'zam  
Karl Rayxl (Germaniya)  
Nazarov Baxtiyor  
Boboyorov G'aybulla  
Byoond III (Koreya)  
Hasanov Nodirxon (Turkiya)  
Ertug'rul Yaman (Turkiya)  
Erkinov Aftondil  
Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)  
Jo'rboev Otabek  
Karimov Naim  
Kerimli Teymur (Ozarbayjon)  
Oh Eunkyung (Koreya)  
Mirzaev To'ra  
Onal Kaya (Turkiya)  
Kimura Satoru (Yaponiya)  
Sodiqov Qosimjon  
Zohidov Rashid  
Yusupova Dilnavoz

EDITORIAL BOARD  
Abdirashidov Zaynobiddin  
Abdulla A'zam  
Karl Rechl (Germany)  
Nazarov Baxtiyor  
Boboyorov Gaybulla  
Byond II (Korea)  
Khasanov Nodirxon (Turkey)  
Ertugrul Yaman (Turkey)  
Erkinov Aftondil  
Isa Khatibeyli (Azerbaijan)  
Jo'rboev Otabek  
Karimov Naim  
Kerimli Teymur (Azerbaijan)  
Oh Eunkyung (Korea)  
Mirzaev Tura  
Onal Kaya (Turkey)  
Kimura Satoru (Japan)  
Sodiqov Qosimjon  
Zohidov Rashid  
Yusupova Dilnavoz

## MUNDARIJA

### *Navoiy dunyoşı*

A.H.Shar'iy Juzjoniy. "Xazoyin ul-maoniy" ning tengsiz  
qo'lyozma nusxasi ..... 2

Abdurasul Eshonboboev. Alisher Navoiy sharo  
adabiyoti nazariyotchisi sifatida ..... 7

Oysara Madalieva. Navoiy devonlarning sharqshunoslik  
instituti asosiy fondida saqlanayotgan qo'lyozmalari ..... 12

Nusratullo Jumaxo'ja. Taqinlarda shoirona shuur  
va ilmiy tafakkur ..... 19

### *Tamaddunimiz ildizlari*

Вера Мухамеджанова. Письменность, как  
фактор преемственности согдийской цивилизации ..... 25

### *Manboshunoslik va matnshunoslik*

Qosimjon Sodiqov. Qadimgi turkiy vasiqlar stilistikasi ..... 42

Matluba Jabborova. Jamshid obrazining genezisiga doir ..... 71

Zilola Shukurova. «Qisasi Rabg'uzi»ning qo'lyozma va  
nashriy nusxalarida folklor namunalarining o'rni ..... 86

### *Adabiyotshunoslik*

Iqboloy Adizova. Amiriy adabiy merosida  
taxmislarning o'rni ..... 96

Marg'uba Abdullaeva "Alanquvo" haqidagi hikoyatlarning  
qiyoziy tahlili ..... 108

Ushbu son "Oltin bitiklar" tahririyatida sahifalandi.  
Manzilimiz: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos

Hojib ko'chasi 103-uy.

e-mail: [oltinbitiklar@inbox.ru](mailto:oltinbitiklar@inbox.ru)

Tel.: (+99891) 166-31-38

Bosishga 29.07.2019-yilda ruxsat etildi

Qog'oz bichimi 70x100 1/16.

nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi  
Matbuot va axborot agentltgi tomonidan № 0940 raqamini  
bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va  
mualliflarga qaytarilmaydi.

"Zebo-Prints" bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma №29/07 Adadi 300 dona.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,  
22-harbiy shaharchasi  
telefon: +99890 136 66 56

## «QISASI RABG'UZIY»NING QO'LYOZMA VA NASHRIY NUSXALARIDA FOLKLOR NAMUNALARINING O'RNI

Zilola Shukurova,

Filologiya fanlari bo'yicha folsafa doktori,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

**Abstract:** Nasiriddin Rabguziy is the author of the historically and literarily significant work created in XIV century in ancient Khorezm. In his book "The Tales of Rabguziy" ("Qissasi Rabguziy") depicted the life of the humankind and the fate of the society, and how mutual relationship between these two aspects determines the future of the nation and its ethic values.

This book contains many charming tales passed down from mouth to mouth; affectionate poetic verses; humorous stories and fables; valuable proverbs, all of which captivates scholars' attention in studying the ancient life of Rabguziy era.

Futhermore, there are more than hundred copies of "Qissasi Rabguziy" kept in the Turkey's State Library; some copies in Britain's museums; more than forty copies in Kazakhstan's State Libraries as well as in Uzbekistan's State Archives and Libraries.

**Key words:** tales of ancient societies, manuscripts, messenger, historically significant work

### Kirish

Ma'lumki, Nosiruddin Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarini yozish bilan adabiyotimiz tarixida badiiy nasa ning ilk va nodir namunasini yaratdi. Bu asar tuzilishi, mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi, badiiy nafosati, turli adabiy janrlar, poetik unsurlarning qorishib kelishi nuqtai nazaridan ham o'ziga xos manbadir. Mazkur yodgorlik mavzusiga ko'ra shu silsiladagi asarlardan farq qiladi. Unda adib diniy sujet voqeahodisalarini aynan keltirmay, ularni o'z ijodiy niyati, ijtimoiy-ma'rifiy ideali bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlaydi. Inson umri, jamiyat taqdiri

va ularning birbiri bilan uzviy bog'liqligi hayotiy voqealar tasviri yordamida oshib beriladi. Demak, bu kitob turkum syujetli badiiy ijod namunalariga yaqin turar ekan.

XIV asrda Xorazmnинг Ra bot o'g'uzida yashagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning shaxsi, yashagan joy haqida izlanish olib bo rayotgan olimlar To'qbug'a beklik qilgan qal'a – Raboto'g'uz hozirgi davr yodgorliklari ro'yxatida To'qqal'a nomi bilan qayd etilib, u Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanida joy lashganligini [Zohidov P., 2002: 2; Abdushukurov B., 2015: 9] aniqlashdi.

Shuningdek, adib hayoti va uning ya gona merosini tadqiq etish, undagi qis sa, hikoya, rivoyat, she'riy janrlar, latifa, hikmat kabilarning asarda tutgan o'rni ni tahsil qilishda ilmiy xulosalar beril yaptiki, u ham Rabg'uziy ijodini o'rga nish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganligini isbotlaydi.

O'z davrining bilimdoni bo'lgan Nosi ruddin Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy" asarini yozishda diniy manbalar ni o'rganish bilan birga og'zaki ijod ta'sirida yuzaga kelgan yozma adabi yet namunalaridan ham foydalangan. O'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan "XIV asrdagi o'zbek badiiy ada biyotining saviyasi, darajasi va kuchini ko'rsatib beruvchi" [Rasulev X., 1986: 30.] "Qisasi Rabg'uziy" "hijriy 710yil ning Hut (milodiy 1310–1311 yil 21fevral – 21mart) oyida" [Rabg'uziy, 1990: 7] yozib tugallangan.

### "Qisasi Rabg'uziy" ilm ahli nigozida

"Qisasi Rabg'uziy" asariga qiziqish barcha davrda ham omma e'tiborida bo'lgan. Keyingi yillarda asarni o'rga nish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar bajarildi. Xususan, O'stonaqulov "Qisas arRabg'uziy" – ada biy asar" nomli tadqiqotida asar manbasini ikki turga: adabiy va tarixiy manbalar ga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radi [O'stonaqulov I., 1993: 35]. Biz ushbu fikrni ma'qullaymiz, biroq, o'rta asr adabiyoti haqida so'z ketganida "Qadimgi va o'rta asrlardagi yozma adabiyot xalq og'zaki ijodisiz rivojlanishi mumkin emasligini" [Kurbaniyozov M., 2016: 69] to'g'ni ta'kidlagan M.Kurbaniyazovning fikrini e'tiroq etmaslikning ham iloji yo'q. Chunki xalq og'zaki ijodi namunala ridan foydalanish har qanday badiiy asarni xalqning yura giga kirib borishiga asos bo'ladi. Ana shu ikki yondashuvni umumlashtirib, "Qisasi Rabg'uziy"ning

shu kungacha mashhur bo'llishida "din – folklor – adabiyot" uchligiring o'rni muhim degan xulosaga keldik. Aynan ana shu uchlik ning yaxlitlashuvi asar ning qariyb yetti asrdan buyon kitobxonlarning qo'ldan qo'ymay o'qishlari ga sabab bo'lgan.

Asar tarkibidagi qissalar o'rtasidagi umumiylilik payg'ambarlarga xos sifatlar ularning Allah tomonidan yuborilgan, jamiyatda avj olgan zararli illatlardan insonlarni gaytargani hamda dinning ahamiyatini tushuntirgani "Qur'on" oyatlari, "Hadis"lardan olingan ibratli niko yalar hamda xalq og'zaki ijodi namunalarini asosida o'ziga xos uslubda ifodalanadi. Shuningdek, muallifning ifoda shakli ham muayyan badiiyeste tek tamo yillarga asoslanadi, ya'ni adib payg'ambarlarning hayot yo'lini tas virlashdan avval ularning sifatlari va mo'jizalarini ertak va dostonlarda yetak chi bo'lgan saj usulidan foydalanadi. Badiiy adabiyotda "qo'llangan saj" esa o'z xarakteri jihatidan juda ham mukam mal bo'lib, saj'langan har bir so'z u yoki bu shaxs sifatlarini ochib berishga xizmat qiladi" [Sarimsoqov B., 1978: 94]. Asar muqaddimasida payg'ambarlar faoliyati umumiy obzor tariqasida she'riy shaklda beriladi. Qissaning mazmuni, badiyiligi ni kuchaytirish, munozarali voqeahodi salarga aniqlik kiritish maqsadida adib tasvir jarayonida bir janr ichida bosh qasini keltirib, asarning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Asarning folklor va yozma adabiyot munosabatini tekshirishda ana shu janrlarni tadqiq etish zarurdir. Zero, "adabiyotshunoslar folklorshunoslikda o'rganiladigan muhim jihatlardan tari xiy adabiy va nazariy muammolarni hal qilishda foydalanishi" [Medrish D.] qo'yilgan muammoning yechimini topishda asos bo'ladi.

O'zbek badiiy nasri tarixi yuzasi dan ilmiy maqola yozgan M.Abdu vohidovaning fikricha, "Qisasi Rabg'uziy" dagi har bir hikoya o'zicha mus taqil asardir. Alohiba olib qaraganimiz da har bir hikoya bizda original asardek taassurot qoldiradi. Shularni e'tiborga olib, Rabg'uziyning ushbu qissasini hi koyalar to'plami, deb atash mumkin" [Abduvohidova M., 1988: 36]. Bu fikr zohiran haqiqatga yaqin ko'rinsada, unga qo'shilib bo'lmaydi. Birinchidan, asar o'z nomi bilan "Rabg'uziy qis salari", hikoyalari emas. Ikkinchidan, "Qisasi Rabg'uziy" shunchaki qissalar to'plami ham emas. Asarning syujet va kompozitsiya jihatidan yaxlit ijodiy maqsad asosida yaratilgani, payg'am barlar hayotiga doir qissalarning yago na mantiqqa bo'yundirilgani, birbirini to'ldirib kelishi fikrimizning isbotidir.

O'sha davr nuqtai nazaridan qara ganda "til jihatdan "Tafsir", "Xusrov va Shirin", "Nahj ufarodis", "Siroj ulqu lub" obidalariga yaqin turuvchi "Qisasi Rabg'uziy" O'rta Osiyoda yashoychi turkiy xalqlar orasida "Qisas ulan biyo" nomi bilan mashhur bo'lgan" [Rabg'uziy, 1990: 6] va turli davrlar da bir necha nusxada ko'chirib ke lingan. Hozirgi kunda asarning bir necha qo'lyozma nusxalari O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozma lar xazinasи Asosiy fondida № R3042, №10252, №7397, №1834, №6227, №11537, №6346, №6685, №6122, №11202, №12701, №7022, №1624, №5687 inventar raqamlari bilan ro'y-xatga olingan. "Qisasi Rabg'uziy"ning turli davlatlarda ko'plab nusxalari saqlanib, Turkiya davlat kutubxonasida yuzdan ortiq, Qozog'istonning Ostona shahridagi davlat kutubxonasida qirdan ortiq qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjudligi aniqlangan [Aysu Ata, 1997: 2122; Xaliullina A., 2002:

11]. So'nggi yillarda ham yurtimiz da asarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari nashr etildi [bilmadim]1\*. Akademik E.Fozilovning qayd etishi cha, "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida asar Toshkent, Qozon, Samarqand shaharlarda lito grafik usulda bir necha marta nashr qilingan. Asarning nisbatan to'la matni ilk marta rus turkshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan 1859yili Qozon shahri da e'lon qilingan. Bu nashr keyinroq ko'chirilgan nusxaga asoslangan bo'lib, til jihatdan asl nusxadan ancha farq qilad", [Rabg'uziy, 1990: 8] deb ber iladi. Bu e'tiroz ancha o'rinli va asosli. Biroq, masalaning boshqa bir tomoni ham borki, nusxalar aro o'zgarishlar asar tilining adib qalamidan uzoqlash ishiga sabab bo'lgan. Biz E.Fozilovning fikriga qo'shimcha qilib aytgan bo'lar dikki, yodgorlikning keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalarida faqat til emas, balki syujetida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berib, asarda folklorlashish ja rayoni kuzatila boshlagan. Natijada, "Qisasi Rabg'uziy" haqida ayrim olimlarning, xususan, tarix fanlari doktori I.Ostonaqulovning "1859–1916 yillarda Qozon va Toshkent shaharida bositgan payg'ambarlar qissalarini Rabg'uziy nomiga nisbat berish to'g'ri emas. Ularni noma'lum avtor tomoni

"Qisasi Rabg'uziy"ning birinchi qismi 2013-yil "Sharq" nashriyotida qaytadan chop etildi. U 191 bet hajmida bo'lib, R.Zaripova, N.Sa'dullaeva tomonidan tayanch manbag'a asoslangan Toshkent nashri matni o'zgartirishlsiz hozirgi o'zbek adabiy tilida tabdil qilingan; Qissaning Samarqand toshbosma nusxasi 2009-yil "Mumtoz so'z" nashriyotida filologiya fanlari doktori B. Abdushukurov tomonidan hozirgi o'zbek adabiy tilida nashr etilgan. U 207 betdan iborat bo'lib, matndagi lavhalarning ba'zilari tushirilgan.

dan ishlangan "Qisas ulanbiyo turkiy" deb atagan ma'qul" [Ostanaqulov I., 1993: 18], degan xulosa chiqar ishigacha olib keldi. Shu sababli, biz I.Ostonaqulovning xulosasi nechog'lik haqiqatga yaqinligi va asar nusxala rining Rabg'uziy uslubidan uzoqlashish sababini topish maqsadida asarning ikki nashrini qiyositarixiy aspektda tekshirishga harakat qilamiz.

1. XV asrda ko'chirilgan va Britaniya muzeysiда saqlanayotgan nusxaning mashhur matnshunos K.Gronbek tomonidan 1948yilda Kopengagenda nashr qilingan faksimilesi [Rabg'uziy, 1990: 8] asosida 1990-1991yillarda Toshkentda "Yozuvchi" nashriyotida akademik E.Fozilov, filologiya fanlari nomzodi A.Yunusov, H.Dadaboev, Yu.Shokirovlardan tomonidan ikki jild holi da nashr qilingan Toshkent nashri.

2. Samarqand toshbosma nusxasi Titul sahifasida "Turkiy "Qisas ulanbiyo" Lirayxon binti Sharif" (ya'ni Sharif qizi Rayhon) deb yozilgan. (U kitobning egasi). Kitobning birinchi betida "Ba say va ehtimomi Eshon Solihxo'ja Tohir kotib Buxoroi Sharif dar viloyati Samarqand" deb kitobning ko'chirilgan joyi va ko'tibning nomi ko'satilgan. Shuningdek, arab alifbosida "Fil matbaa Demurov" deb hamda varaqning pastki hoshi yasida kirill harflari bilan "Dozvoleno senzuroy SanktPeterburg 17 dekabrya 1904 goda. Tipo lit. R.I.Demurova v Samarkande" deb nashriyot nomi berilgan 528 betdan iborat [Qissas ulanbiyo, 1904]1\*. Samarqand toshbosmasini taddiqot ob'ekti sifatida tanlashimizga sabab hozirgi kunda Respublikamizda mavjud kutubxonalarining qo'lyozmalar fonda saqlanayotgan asar nusxalarining ko'pchiligi XVII-XIX asrlarda

ko'chirilgan namunalardir. Ushbu nashr ham bu nusxalar bilan kompozitsiyasi, tili, suyjetiga ko'ra yaqin. Shu sababli ana shu ikki nusxani qiyoslab, keyingi davrlarda ko'chirilgan asar namunalarining nima sababdan adib qalamidan uzoqlashganligini uch aspektda o'rqa namiz:

### Mavjud hikoyalarning suyjetidagi o'zgarishlar.

"Qisasi Rabg'uziy"ning qo'lyozmalarida eng ko'p uchraydigan holatlardan biri mavjud suyjetlarning kengayish holatidir. Bunda kotiblar asarni ko'chirish asnosida ularga ijodkorlik nuqtai nazaridan yondashganlar, voqealarini kengaytirib, badiiylashtirib, xalq eg'zaki ijodi namunalari bilan to'ldirib borish gan. Bundan ularning asosiy maqsadi asarning badiiyestetik ta'sirini kuchaytirish bo'lgan. Masalan, Toshkent nashrida Nuh payg'ambarga shu nomning berilishi haqida shunday deyilgan: "Oti Yashkir edi navha birla yig'lamish uchun Nuh atandi. Aymishlar, navha singa sabab ul erdikim, kunlardan bir kun Iblis aydi: "Yo Nuh, maning haqimda esh qilding. Agar eshlarim, qo'doshlarim, cherigim yig'ilu kelsa bu erda bilmaz erdilar". Nuh aydi: "Ul qayu erdi?" Iblis aydi: "Sen duo qilding, qavming halok bo'ldi. Qamug'lari tamug' ichindan manga qo'dosh bo'ldilar. Sabr qilsang biragu imon keltirib sanga ul foziroq erdi". Nuh (a.s.) tunkun navha qildi" (1k., 40b.). Samarqand toshbosma nusxasida Nuh payg'ambar haqida gi voqealar keng va batatsil yoritilgan. Unda berilishicha, Nuh payg'ambarning asl ismi Shokir bo'lib, Nuh deb atalishining uch xil sababi keltirilgan: "... biri ulkim, bir kun Shayton (a.l.) oldi larig'a kelib rizolig' va minnatdorlig' qildi had hisobdin tashqari. Nuh aydilar: Ey mal'un, san ne ishg'a mucha xush nudlig' qilursan dedilar. Iblis aydi: Ey

<sup>1</sup>Qisas ulanbiyo. Samarqand toshbosmasi. 1904 (bundan keyingi o'rnlarda asardan olinigan misollar o'sha joyda sahifasi ko'satiladi)

Nuh, hama olamni xalqi sani duoing bila yo'q bo'ldi. Bu yo'l bila do'zaxqa ulan di. Do'zaxni ichi to'lub, mani ko'nglum tinib qoldi. Agar san duo qilib munkha xalqni yo'q qilmasang, bu xalqdan qan cha payg'ambar, qancha avliyo va olim va zohid va solih va fozil va taqvodor vujudg'a kelur erdi. Manga har kunda ming la'nat yuborur erdilar. Holo hama si bo yakbora yo'q bo'ldi. Man ul bois din avvali oxir minnatdor bo'lg'ondek hech kim minnatdor bo'lmashlar. Manga sandek xizmat qilg'on kishi yo'qduri dedi. Shundan pushaymon va nadomat qilib... chandonchandón yig'ladirkim... ul boisdan Nuh atandilar.

Yana biri ulkim, bir kun o'lturub erdilar bir it kirib kelib qoshlariga turdi. Nuh itni nari ketkil badishka dedilar. It aydiki: Ey Nuh, san naqshni ayb qilurmisan, naqqoshnimu? Agar naqshni ayb qilsang, man o'z holimcha mundog' bo'lg'on emasman, agar naqqosh ni ayb qilsang Hazrat Haq Subhana Taolo dedi. Nuh bu so'zlarig'a pushaymon bo'lub yig'ladilar ul sababdan Nuh atandilar.

Yana bir boisi ulkim, Hazrat Haq Subhana taolo farmon qildiki, Ey Nuh, san ko'b ko'za, xum, obdasta qilg'il dedi. Hazrat Nuh ko'b ko'za, xum, ob dasta tayyor qildilar. Tayyor bo'lg'on dan keyin hammasini sindurg'il deb farmon bo'ldi. Hammasini sindurdilar. Aydilarkim, Ey bor Xudoyo, ko'za qilg'il deding, ne migdor mashaqqatlar bila tayyor bo'lg'onda sindurg'il deding sin durdim. Mani mehnatimni zoe' qilding. Boisi nedur deb erdilar. Hazrat Haq Subhana taolo aydiki: "Ey Nuh, besh oti qilg'on jonsiz ko'zag'a mehnatim zoe' bo'ldi dersan. Mani bandalarim Mag'ribdin Mashriqg'acha to'la erdi. Hammasini yo'q qilg'il deb duo qilding, man ijobat qildim. Hammasini bir yo'li yo'q qildim. Man sanga necha xalqimni

nimaga yo'q bo'lsun deydursan dedim mu" – deb erdi. Bu so'zdan hijolatlilik bo'lub ko'b yig'ladilar. Ani uchun Nuh atandilar (96-97b). Yuqoridaq misollardan ko'rinish turibdiki, kotiblar qissa ning ayrim syujet chizig'iga qo'shimcha voqealar kiritib, uni ertaklarga yaqin lashtirib, asl matndan uzoqlashishiga sabab bo'lg'anlar. Manbalarga nisbatan bunday munosabat ularning nazarida, qissaning "mukammallashishiga" xizmat qilgan.

### **Qo'shimcha kiritilgan xalqona talqindagi hikoyalar.**

"Qisasi Rabg'uziy"ni asl matndan yiroqlashtirgan va uni xalq qissala riga yaqinlashtirgan asosiy jihatlar dan yana biri mustaqil kiritilgan hikoya yeladir. Masalan, Samarqand nashrida "Shayton va uzum" hikoyasi berilgan. Bu hikoya Toshkent nashrida umu man uchramaydi. U keyingi davrlarda noma'lum mualliflar tomonidan qo'shilgan ijod namunasidir. "Hikoyada andog' kulturabdurlarkim, shaytoni mal'un uzumni urug'ini o'g'urladi. Hech vaj bila topolmadilar. Hayvonotlardan so'rdilar. Hech qaysi bilmasdi. Shaytonni tutdi lar. Aydiki, uzumg'a uch marotaba suv qo'ymoqni manga bersangiz, topib beray dedi. Nuh (a.s.) ham qabul qildilar. Uzumni urug'ini topib berdilar. Vaqtiki kemadan chiqtilar, barcha urug'larni ektilar. Uzumni uch suvini shaytoni la'in sug'ordi. Avval, tulki qoni birla, andin keyin yo'barsni qoni birla, andin ke yin to'ng'izni qoni birla sug'ordi. Aning bergenidan chog'ir bo'ldi. Har kim ichsa, avval tulki bo'lib ko'rмагон kishi birla do'stluq og'oz qilur. Andin mast bo'lg'onda yo'lbarsdek bo'lur. Himmadir jo'sh bo'lub har kimga bir nimarsa berur. Andin mastroq to'ng'uzdek yur gilik bo'lub hech ishidan qo'rmas. Har qism yomon ish sodir bo'lur. Shayton bergen suv fe'lidur. Andin so'ng hazrat

Nuh (a.s.) ikki marotaba suv berdilar. Avvali behisht .... erdi, andin shirini pay do bo'lди. Yana biri salsabildin. Andin sirka paydo bo'lди. Bu nimarsalar Nuh (a.s.)ni xosiyatlaridur. Bu nimarsalar har uya bo'lsa, ul uya hargiz farish ta kam bo'lmас dedilar" (106–107b). Demak, o'sha davr xalq og'zaki ijodida shu kabi hikoyalar bo'lgan va uni kotib ishonchlilik darajasiga e'tibor bermas dan Nuh payg'ambarniing sifatini yoritib beruvchi hikoya sifatida "Qisas ulanbi yo" tarkibiga kiritgan.

### **Asar uslubi, obrazlar tizimining folklorlashuv jarayoni**

"Qisası Rabg'uziy"ni xalq qissalariga yaqinlashtirgan yana bir jihat qahra monlar nutqi, murojaati, histuyg'ulari ning nazmda ifodalanishidir. Bu holat uni xalq dostonlariga yaqinlashtirib, adib qalamidan uzoqlashishiga olib kelgan. "Natijada epik voqealar bayo nida odatdag'i ko'chirma gaplardan voz kechib, hikoyachi nutqini to'xtatib, so'z bevosita personajlarning o'zları ga be rila boshlandi. Tizma dialog ta'sirchanligi, tipikligi va dramatizmi bilan hikoyachi nutqiga xos an'anaviy ko'chirma gap dan afzal ekanini ko'rsatadi" [Yormatov I., 1994: 17]. Masalan, Toshkent nashri da Yusuf (a.s.) qul qilib sotilgach, kar von bilan birga ketayotganida yo'lda onasining qabri yonidan o'tadi va Yusuf (a.s.)ning unga qilgan murojaati quyidagicha tasvirlanadi: "Anga tegdi o'zini tevadin guzi soldi. Onasi qabrin quchdi, yig'ladi, aydi: "Ey onam, sandin azrilmish erdim, emdi otamdan taqи az rildim. Taqи ortuqroq qul deb sotildim, azoqimg'a kishan urdilar yanchuklarim yo'g'on kishanda shishdi. Nozuk etim, tanim qattig' ingirchoqda yanchildi. Ey onam, koshki sandin burunroq o'l mish kerak erdim", teyu yig'ladi (1k., 111 b.). Endi xuddi shu tasvirni Samarqand

nashri bilan qiyoslaymiz. Unda bosh qahramonning onasiga murojaati olti banddan iborat muxammas bilan ifoda lanadi:

### **Muxammas**

*G'oyib eding bu diydalarimdan, dilim onam,  
Jonim tanim eding jigarim, dilbarim onam,  
Har dam rafig va mushfiq eding, munisam onam,  
G'uncha labing dumohi ruhum, axmarim onam,  
Qabringa termulub sezadir, gavharim onam.  
Mungdoshgali bu erda mani yo'q qarindoshim,  
Bino bo'lsa oyoqing ostida munglug' maning boshim,  
Daryo misollik oqti ko'zimdan mani yoshim,  
Bunyomin padar qoshida mani mungdoshim,  
Boshimda tirkovuch edingiz, qarqarim<sup>1</sup> onam.  
Qon yig'ladi bu diydalarim yo'lga terilib,  
Xidmat etolmadim boshingizdin ming o'rgulub,  
Har kun g'amingga tirilib ikki ming o'lub,  
Ko'z yoshim oqti diydadin monand xun bo'lub,  
Ko'rmay yuzungni jafo tortarim, jonim onam.  
Keldim bu kun ko'rarga muborak jamolizingiz,  
Gulg'unchasiga o'xshar edi ilhomizingiz,  
Shoyad etarga gar nasib o'lsa visolizingiz,  
Qildim xayol kirsam o'psam oyog'ingiz,*

<sup>1</sup>Qarqar – kabutar. Muhammad Ali Tehroniy. Farhangi kotuziyon. (Tehron: Tehron, hijriy 1311), 525.

*La'l u nabotu qandu asal shakarim  
onam.*  
*Qondosh ag'olarim mani g'urbatga  
tashladi,*  
*Ayirib otamdan g'am va mehnatga  
tashladi.*  
*Qul deb sotib mani mashaqqatga  
tashladi,*  
*Rahm aylamay manga chu firoqqa  
tashladi,*  
*G'amxo'r va hamdamim edingiz,  
mahramim onam.*  
*Bechoravor padar qoldi o'z  
diyorida,*  
*Qo'ydi mani raqib padarni  
firoqida,*  
*Yotsam ne erdi yotsin debon man  
oyog'ida*  
*Ko'nglimda yuz alamdur otam  
ishtiyogida,*  
*Ko'bdir yaroqlig' sababdin va  
xastam onam.*  
 (199b)

Muxammas yozish an'anasisiga ko'ra  
she'r aaaaa, bbbb, vvva...  
tarzida qofiyalangan. Biroq undagi hi  
jolarning miqdori bir xil emas. Shunga kora bu  
muxammasni bosh qahramon  
histiyg'ularining, ichki kechinmalari  
ni obrazli yetkazish maqsadida kotiblar  
yoxud qissaxonlarning improvizatsiya  
mahsuli deyish mumkin. Mazkur holat  
dostonlar tuzilishini esga soladi. Chunki  
bu janrga xos xususiyatlardan biri qahra  
mon ruhiy kechinmalarining she'riy tarz  
da ifodalanishidir. Masalan, "Alpomish"  
dostonida Boysari o'z yurtidan arazlab  
qalmoqlar yurtiga borgach, ularning eri  
da xor bo'lib, vatandan judolikda yonib,  
jallodlarga qarata aytgan she'riy muno  
jotida ham ruhiy tushkunlik kuchli [Zarif H.  
Mirzaev T., 2010: 32]. Qiyoslansa,  
har ikki obrazdag'i yaqinlik ona tuproq  
dan va yaqinlardan ajralish hissining  
o'zaro hamohangligidir. Dostonlarga xos

bo'lgan an'anaviy holatlarning "Qisasi  
Rab'uziy" nusxalarida uchrashi yod  
gorlikni folklor asariga yaqinlashtirib  
o'yan. Zero, "An'anaviylik va simmet  
rik taqvim – folkloarning ajralmas jihatidir"  
[Medrish D.]

Aslida bunday she'riy parchalarning  
kiritilishiga sabab o'tmishda, ayniqsa,  
qish kechalarida tashkil qilingan yig'inlar  
da qissaxon, xaifalar tomonidan aytildi  
gan qissaarda bu muhim jihat bo'lgan.  
Aynan ana shu usul bilan ular tinglovchi  
ruhiyatiga ta'sir etib, ularni o'ziga sehr  
lagari va beixtiyor tinglovchilar ham  
Yusuf(a.s.)ning boshiga tushgan alam,  
dard sog'inch iztirobi orqali o'zlarining  
dard va tashvishlarini yodga olib, she'r  
ma'nosiga oshufa bo'lganlar. Bir kishi  
aytib, jamoa bo'lib tinglanadigan qissa  
xonlik kechalarida bu muhim edi.

Ba'zan kotiblar qahramonlarning  
nutqini aynan keltirgani holda uning  
ruhiyatiga mos keluvchi qo'shimcha  
she'r ham ilova qilishadi. Ular nafaqt  
turkiy tilda, balki forstojik va arab til  
larida ham mustaqil ishlangan she'r lar  
namunalidir. Masalan, Toshkent  
nashrida Ya'qub (a.s.) Yusuf (a.s.)ni  
o'g'illari bilan dalaga kuzatayotib "Iziyo,  
Yusufumni senga topshurdim, manga  
tirik yondurg'il. Firoqining mani o'ti bir  
la yondurmag'il" degan Tangriga mu  
rojaati berilgan. Xuddi shu murojaat  
Samarqand toshbosmasida ham tak  
rorlanadi va unga qo'shimcha ravishda  
quyidagi she'r ham ilova qilinadi.

### She'r

*Yo rab, ba haqqi shabi zindadoron,  
Ba ohu nolai umidvoron,  
Ba bolini g'aribon bar sari roh,  
Chu taskimi asiron dar tagi choh,  
Ba obi diydai tifloni ma'sum,  
Ba so'zi siynai pironi mazlum.  
Tu rahmi bar dili pur xunam ovar  
Azin girdobi g'am birunam ovar.*  
 (188b)

### Ma'nosi:

(Ey parvardigor, kechani uyg'oq  
o'tkazguvchilar haqqi,  
Umidvorlarning ohu nosali haqqi,  
Yo'l boshida o'tirgan g'ariblar haqqi,  
Zindonda yotgan asirlar haqqi,  
Beg'ubor bolalarning ko'z yoshi haqqi,  
Mazlum qariyalarning kuygan yuraklari  
haqqi,  
Qonga to'lgan bag'rimga rahm qil  
G'am girdobidan meni qutqar).

Qissada ikki tildagi she'rلarning kuzatilishini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin: Birinchidan, bu qo'l yozma forstojik tilidagi nusxa asosida ko'chirilgan. Buni biz "... bu "Qisasul an biyo" arabiy erdi. Forsiy qilib andin turkiy tarjima qilindi" (3b) degan jumlesi bilan izohlaymiz. Demak, "Qisasi Rabg'uzy" arab va forstojik tilida so'zlashuvchilar o'tasida ham mashhur bo'lib, u arab tilidan fors tiliga, fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan va mana shu jarayonda ayrim she'rler turkiy tilga tarjima qilin may qolgan. Ikkinchidan kotib yasha gan hududdagi yerli aholi fors-tojik tilida bemalol so'zlasha olganligi sabab bu tildagi she'rلarning tarjimasiga ehtiyoj tug'ilmagan.

Qissada tabiat tasviri, qahramon larga xos ijobjiy yoki salbiy sifatlar xususiyatlarni yoritishda an'anaviy boshlamalarning o'mi beqiyos. "Qisasi Rabg'uzy"da ham adib qahramonlar ruhiyatiga mos ravishda payg'ambarlar qissalarining boshlanmasida so'zboshi o'rnida, tabiat tasviridan foydalana di. Bunda u-sai'lar yordamida ma'lum ohengdorlikni hosil qiladi. Btning vazi famiz keyingi davrda ko'chirilgan asar nusxalarida uchraydigan o'zgarishlarni ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun Yusuf (a.s.) qissasidagi tush motivi mi solida dalillashga harakat qilamiz.

Toshkent nashrida Yusuf (a.s.) yetti yoshga to'lganida payg'ambar bo'lishi dan bashorat beruvchi ikkitash ko'ra di. "Tush ko'rdi inichilari birla tayog'la rin yozida tiqdilar, qamug'lan ko'kardi, ammo uzamadi... Ikkinchichi kecha yana tush ko'rdi: o'n bir yulduz, kun oy birla inib Yusuf'a sajda qildilar" (1k., 102 b.), deya keltirilgan. Samarqand tosh bosma nusxsasida esa Yusuf (a.s.)ning payg'ambar bo'lishidan bashorat qiluvchi beshta tush tasviri berilgan bo'lib, ulardan birida quyidagicha tasvirlana di. "Yana bir kun tush ko'rub, qo'rqub uyg'ondilar. Otalariga aytilarim, bir ulug' shaharda emishman. Boshimda toj murassa', belimda kamar, qo'limda angushtar katta jamiyat xalq xizmatim da olturubdurlar. Hama darpo'sh, murassa'po'sh. Ul asnoda osmonlarni eshibi ochiq bir nuri munavvar hama daryolarni suvi ravon, yig'moqlari sa noxon erdilar. Oldimda bir rido hama olam ul ridoni nuriidan ravshan va munavvar erdi. Olamdagagi hama ganjlarni kalidi mani oldimda erdi. Bu ishlarga taajjub qilib turur erdim, nogoh o'n bir yulduz, oy, va kun manga sajda qil di, deb tushlarini otalariga aytdilar" (184b). "Asar ko'proq payg'ambarlar haqiqagi qissalar asosida qurilganligi uchun ham unda arab, forstojik tiliga oid leksik birliklarning saj'lanishi ancha gina uchraydi" [Sarimsoqov B., 1978: 95]. Bu holat nafaqat qo'lyozmada, bal ki keyingi davrda ko'chirilgan barcha nusxalarda yaqqol ko'zga tashlanadi gan jihatlardan biridir. Birgina tush motivining bunday tarzda badiiylashtirilishi qissaxonlarning ijodiy qobiliyatiga ko'ra qayta ishlangan, to'ldirilgan variantlaridir. Yusuf payg'ambarning mazkur tush lavhasi go'yo sehrli ertaklardagi afsonaviy bog'larni eslatib, bosh qah ramonning uzoq va mashaqqatli yo'l

bosib, ana shunday bog'rog'larga kirib qolish lavhasini eslatadi. Dostonlardagi tabiat tasviri haqida G.Eshchonova "ta biat tasviri personajlarning ma'naviy qiyofasini ochishga yo'naltirgani holda xalq ijodkorlarining estetik qarashla rini ham o'zida mujassamlashtiradi" [Eshchonova G., 1994: 76], – degan da to'g'ri ta'kidlagan edi. Zero, ana shu bog' tasviri Yusuf (a.s.)ning kela jakkagi yorqin taqdirdidan bashoratning ramzi edi. Shuningdek, bog' tasvirining mo'jizakor chiqishiga sabab naer po etikasi unsurlaridan hisoblangan saj san'atidan foydalanganligidir. Chunki saj' qissaga ma'lum ohang musiqiy lik bag'ishlab, ertak va dostonlar kabi eshi tilganni yodda saqlab qolishni yen gillashtiradi.

Og'zaki hamda yozma adabiyotda birdek ishlatalidagan saj' san'ati haqida professor B.Sarimsoqov maxsus tad qiqot olib borib, ko'pchilik olimlarning saj' san'ati arab adabiyotidan o'tgan degan xulosalariga qarshi o'laroq turkiy xalq adabiyotida saj' dastlab shu xalqning og'zaki ijodida namoyon bo'lganligini asoslagan [Sarimsoqov B., 1973: 57].

### Xulosa

"Qisasi Rabg'uziy" asarining har ikki nusxasini qiyosiy o'rganish natijasida ular orasidagi qator tafovutlar aniqlandi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yuqorida asarning Toshkent nashri va Samarqand toshbosma nus xalari qiyosiy o'rganilishi natijasida ayrim olimlarning "Keyingi davrlarda ko'chirilgan "Qisas ulanbiyo" nomi bilan tarqalgan qissalarni Rabg'uziy nomiga nisbat berish to'g'ri emas [Ostonaqulov I., 1993: 18], degan fikrlariga qarshi o'laroq biz bu asarlar aynan Rabg'uziying qalamiga man sub, degan xulosaga keldik. Sababi

bu nusxalar Rabg'uziygacha yoxud Rabg'uziydan keyingi davrlarda yasha gan adibning ijod mahsuli bo'lganida edi, Samarqand toshbosmasining 3be tida "Bu kitobni tuzgan va toat yo'lini kezgan ulug' yo'rug'luq Rabot o'g'uz ining qozisi Burhonuddinning o'g'li qozi Nosiruddin" degan jumlalar bitilmagan bo'lardi. Bu esa forstojik va turkiy tilda ko'chirilgan "Qisas ulanbiyo" nomi bi tan mashhur bo'lgan asarlarning asosi "Qisasi Rabg'uziy" ga taqalishini bildira di.

2. "Qisasi Rabg'uziy" asrlar davo mida qaytaqayta ko'chirilishi natijasi da asarning an'anaviy tuzilishida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bu holat esa asarning qadimiy nusxasi bilan kotiblar ko'chirgan nusxalar o'rtasida jiddiy tafovutni yuzaga keltirib, uning xalq qissalariga yaqinlashishiga asosiy omil bo'lgan.

3. Toshkent nashrida payg'ambarlar hayoti va faoliyatini tasvirlashda muallif qissa termini ostida shu payg'ambarga tegishli voqealar va hikoyalarni keltiradi. Keyingi davrlarda ko'chirilgan nus xalarda, xususan, Samarqand toshbos masida esa voqealar ancha keng yoritilgan va hatto, maxsus fasllarga bo'linib, syujeti qo'shimcha hikoyalar, obrazlar vositasida ancha kengaytirilgan. Ayrim qissalarning yo'qolgan sahifalari qayta tiklangan. Masalan, bиргина Odam (a.s.) qissasi Samarqand toshbosmasida 11 fasldan iborat, Yusuf (a.s.)ning o'llimi voqeasi va Muso (a.s.) qissasining boshlanish qismi qo'shilgan. Toshkent nashrida esa ular umuman aks etma gan.

4. Qissalarni ko'chirish jarayonida kotiblar asar syujetini "mukammallah tirish" uchun ayrim voqeahodisaga qo'shimcha qilib lirik she'rlar qo'shi shadi, ba'zan esa voqeani butunicha nazmda ifodalashadi. Ayrim hollarda

esa forstojik va arab tilidagi she'rlar ham ilova qilinadi. Bu holat deyarli bar cha qissalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, kotib qissaning uzilgan qismini ijodiy to'ldirgan, qayta ishlagan.

Bu qiyoslardan shu narsa aniqlan diki, asarning tadqiqot ob'ekti qilib olin gan Samarqand toshbosma nusxasi XIX asrda ko'chirilgan bo'lib, syujet chizig'i, she'rlar ko'lami, mavzusi va mazmuni, hikoya va rivoyatlarning hajmi va qamrovi bilan Toshkent nashri dan farq qiladi. Toshbosmadagi vo qeahodisalar folklor elementlariga boy bo'lib, asardagi ba'zi hikoyalar ertak va dostonlarga yaqin.

Toshkent nashrining ayrim sahifalari jiddiy zarar ko'rganligiga qaramay, o'zida XIV asr adabiy tilini saqlaganligi, voqealar ko'laming ixchamligi va mualif qalamiga yaqinligi bilan e'tibor lidir. Bu esa Toshkent nashrining bar-

cha nusxalardan mukammal, qadimiy va mamlakatimizdagi yagona tayanch manba ekanligini ko'rsatadi.

Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarini o'rganish va tahsil qilish jarayonida shu narsa malum bo'ldiki, hozirgacha biz tayanib kelayotgan adib ijodi haqidagi ayrim ma'lumotlar adib va uning merosi haqida to'liq tasavvur hosil qilmaydi. Asar o'quv chilarning sevimli asari bo'lgani sabab, turli joylarda kotiblar tomonidan qaytaqayta ko'chirilgan va kitobat asnosida asarga qo'shimcha voqealar, hikoyalar va she'rlar kiritilgan. Natijada, asar tili, syujeti, kompozitsion tuzilishi va hattoki, uning yozilish sanasiga doir ayrim chalkashiikklar yuzaga kelganki, bu sohada hali koplab ilmiy izlanishlar olib borilmog'i kerak.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduvohidova M. B. Rabg'uziy va o'zbek klassik prosasi // Adabiy meros. – Toshkent, 1988. – 4son (46). – B. 36.
2. Abdushukurov B. Eski turkiy tili adabiy til leksikasi. (Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2015), 9.
3. Aysu Ata. Nasiruddin bin Burhanuddin Rabguziy. Kisasi anbiyo. (Anqara, 1997), 21–22;
4. "Alpomish" dostoni. Nashrga tayyorlovchi H.Zarif., T.Mirzaev. (Toshkent: Sharq, 2010), 32;
5. Yormatov I.T. O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati: Filol. fanri dri...diss. – Toshkent, 1994. – B. 17.
6. Zohidov P. Kun tug'ardin kun botarg'a so'zi etgan zot // O'zbek adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2002. – 2fevral. – B. 2;
7. Kurbaniyazov M. "Qisasi Rabg'uziy"da folklorizmlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2016. – 3son. – B. 69.
8. Medriš D. Literatura i fol'klornaya traditsiya, Voprosy poetiki.
9. Muhammad Ali Tehroni. Farhangi kollegiyon. (Tehron: Tehron, hijriy 1311), 525.
10. Ostonaqulov I. «Qisas arRabg'uziy» – adabiy asar: Filol fanri nomz... diss. – Toshkent, 1993. – B. 35.
11. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1kitob. (Toshkent: Yozuvchi, 1990), 7.
12. Rasulev X. Xalq fantaziyasi: Izzlerining korinishi // Adabiy meros. – Toshkent, 1986. – 2son (36). – B. 30.
13. Rahmonov N. O'zbek adabiyot tarixi (Toshkent: Sanostandart, 2017), 231–253.
14. Sarimsoqov B. O'zbek adabiyotida saj'. (Toshkent: Fan, 1978), 94.
15. Xалиуллина А.Р. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного памятника ХИВ в. «Кисас ал анбия». Насриддина Рабгузи. (Казан: Казанский государственный университет, 2002), 11
16. Eshchonova G. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining variantlari: Filol. fanri nomz. diss. – Toshkent, 1994. – B. 76.
17. «Qisasi Rabg'uziy». Nashrga tayyorlovchi Zaripova R., Sa'dullaeva N. (Toshkent: Sharq, 2013), 191.
18. «Qisasi Rabg'uziy». Nashrga tayyorlovchi Abdushukurov B. (Toshkent: Mumtoz so'z, 2009), 207.
19. «Qisas ularbiyo». Samarqand toshbosmasi. Samarqand, 1904.
20. [http://modernlit.net/books/medrish\\_d/literatura\\_i\\_folklornaya\\_tradisiya\\_voprosi\\_poetiki\\_read.html](http://modernlit.net/books/medrish_d/literatura_i_folklornaya_tradisiya_voprosi_poetiki_read.html)
21. <http://library.zyonet.uz/uploads/books/29429/546478bb007e6.pdf>